

**ZAMONAVIY TA’LIM MAZMUNINI 4K MODEL ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**Mirzaahmedova Nigoraxon Abdusalim qizi
ADPI, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
yo’nalishi talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4K modeli va uning tarkibiy qismlari, boshlang‘ich ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari, ta’lim samaradorligini oshirishda 4K modelidan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. “4K” modeli, Kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, ta’lim, tarbiya.

Bugungi kunda o‘quvchini maktaga tayyorlash bu o‘quvchining ehtiyojini inobatga olmasdan tashkil etilmaydigan jarayon. Chunki, o‘quvchilarning ehtiyojlari, uning qobiliyatlari ta’lim traektoriyasini samarali qurishga ya’ni o‘quvchini o‘qitish emas uni o‘qishga o‘rgatish, o‘quvchining imkoniyatlarini uning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirish hisoblanadi.[1] Boshlang‘ich ta’lim-shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasini bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsini” yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yòlidagi kelgusi natijalar uchun kuch toplashni boshlaydi. Bu esa zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. [2]

Aytish lozimki, hozirgi davr o‘qituvchilaridan faqatgina turli ma’ruza va qolipga tushib qolgan mavzular bilan cheklanib qolmay, mustaqil ta’lim, elektron resurslar va texnologiyalardan foydalanib, dars o‘tishni ilg‘or metodikalaridan unumli foydalanib dars o‘tib amaliyotga joriy etishni talab qilmoqda. Bunday ta’lim berish shakli o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki bugungi kunda zarur bo‘lgan XXI asr kònikmalarini rivojlantirish orqali bilimlarini oshirishga yordam beradi. Shu ma’nodan o‘quvchilarni tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy, ijodiy fikrlashi, atrofdagilar bilan sog‘lom hamkorlik qilishi hamda moslashuvchan bolishini talab etadi. [3] Buning uchun ta’limni isloh qilish tizimiga yangi inovatsion uslublarni joriy etish bilan darsda o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish lozim. Ana shunday yondashuvlardan biri 4K modelidir. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan to‘rtta tamoyilni o‘z ichiga oladi: Kollaboratsiya. Darsliklar o‘quvchini jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash kònikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi. Kommunikativlik. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshini tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlash. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, inovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish kònikmalariga ega bo‘ladi. Kritik(tanqidiy)fikrlash. Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish kònikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradi. [4]

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim- o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda, uning shaxsi, o‘ziga xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan

ta’lim. Shaxsga yo’naltirilgan ta’limning o’ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsni tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. [5] Shaxs ijodkorligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o’tkirligini ham belgilab beradi.

1. Odatda ijodkorlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko’zga tashlansada, biroq bu holat ularning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo’lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko’nikma, malakalarni o’zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda ijodkorlikni shakllantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qilish zarur.

2. Ular tomonidan ko’p savollar berilishini rag’batlantirish va bu odatni qo’llab-quvvatlash,

3. Bolalarni mustaqilligini rag’batlantirish va ularda mas’uliyatni kuchaytirish,

4. Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish,

5. Bolalarni qiziqishlariga e’tibor qaratish.

P.Torrens fikricha, ijodkorlik -muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o’zgartirish qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning òzaro qarama-qarshiligiga nisbatan tasirchanlikni ifodalaydi. [6]

Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshishi mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g’oya hamda e’tiqodlarni hayotda tatbiq qilish uchun bo’lgan kurashning qiyin daqiqalarida unga madad bo’ladi. [7]

O’quvchilarda muloqotini shakllantirish-bolalarda hayajonni yengishga, muloqotdan cho’chimaslikka, savol bera olish va javob berish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, boshlang’ich ta’lim-shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. O’quv faoliyati bolada nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurni rivojlanishini taqozo etadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi ham o’quv faoliyati bilan o’zaro bog’liq ravishda rivojlanadi. O’yin faoliyatidan o’quv faoliyatiga o’tish o’ziga xos qiyinchiliklarga sabab boladi. O’quv faoliyatini o’yinlar, ko’rgazmali qurollar bilan tashkil etilishi bu muammoni hal qilishni samarali vositalaridan biri. Chunki, bu davrda so’z-mantiq xotiraga nisbatan ko’rgazmali-obrazli xotira ko’proq rivojlangan bo’ladi.

Baxs-munozara metodini qo’llash. Har bir bola muammoli vaziyatga o’z dunyoqarashidan, e’tiqodidan kelib chiqib turlicha yondashadi. Bolaga o’z fikrini bayon etishda erkinlik berish, fikrini bo’lmaslik kerak. Bu uslubda bolalar nafaqat mushohada qiladilar, balki boshqalarni tinglash, fikrlarni tahlil qilish va o’z fikrlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo’ladi.

O’quv faoliyati davomida shaxs ijtimoiylashuvi ham shakllana boshlaydi. Bunda tarbiyaning o’rni katta. Boshlang’ich sinfning “Tarbiya” fani darsliklarida “vaziyatni o’rganing” topshiriqlari insondagi qaysi xislatlar yaxshi-yu, qaysilari salbiy ekanligi va nima uchunligini mulohaza qilishga undaydi.

Kichik guruhlarda savol-javob musobaqalarini o’tkazish orqali bolalarni bilimlari sinovdan o’tkaziladi, mustahkamlanadi. G’oliblar rag’batlantiriladi. Rag’batlantirish yangi motivlarni yaratilishiga turtki bo’ladi, jamoa bo’lib ishlash esa mas’uliyat hissini shakllantiradi. Chunki bola o’z javobini guruhga ta’sir etishini anglagan holda harakat qiladi, bunda bolaning o’ziga bo’lgan ishonchi muhim rol o’ynaydi

Bola o’z manfaati uchun bajon-u dil mehnat qiladi, lekin barcha mehnat ham bolada ijobiy hislatlarni shakllantirmaydi. Bolani asta sekinlik bilan mehnatsevarlikka o’rgatish, ko’pchilik manfaatini ko’zlaydigan mehnat faoliyatiga jalb etish lozim. “Sen shunday inson bo’lsang, yaxshi yashaysan” deb emas, “Sen shunday inson bo’lsang, shuncha odamga yordam berish imkoniyatiga ega bo’lasan” kabi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Bolaning tarbiyaviy shakllanishi faqat ta’limga bog‘liq jarayon emas. Ma’lumki, yoshlarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy pedagogik kadrlar shug‘ullanadilar. Tarbiya jarayonida barcha ishtirokchilarning bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

Vatandoshimiz marifatparvar va davlat arbobi Abdulla Avloniy aytganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo ma’mot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir...”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi"dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi Toshkent: 2023.
2. O‘rmonova Dilfuza Mamasalievna **TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH DARSLARINI “4K” MODELINI ASOSIDA TASHKIL ETISHDA KOLLABORATIV MUHITDAN FOYDALANISH USULLARI** Innovative Development in Educational Activities (IDEA) Vol. 2 No. 3 (2023)
3. <https://parliament.gov.uz/articles/1623>
4. <https://kun.uz/82301169?q=%2Fuz%2F82301169#>
5. <https://kun.uz/uz/82301169>
6. <https://yuz.uz/uz/news/4k--bolajak-talimni-belgilaydi>
7. <https://xabar.uz/uz/talim/ozbekistonda-4k-bolajak-talim-tamoyili>